



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI:
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
2024-yil 30-sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Michigan davlat universiteti (AQSH)
Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
“MASHHUR PRESS”
2024**

UO‘K: 631.542.12

KBK 83.3(0)3

“Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Toshkent: MASHHUR PRESS, 2024. – 496 b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi ushbu xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida zamonaviy filologik tizimda adabiy ta’limning eng dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 dan ortiq maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirar:

I.G‘afurov – O‘zbekiston Qahramoni, San’at arbobi,

Y.Ergashev – O‘ZMU prorektori, professor

Tahrir hay’ati:

N.Hasanov, J.Jo‘rayev, Q.Husanboyeva, M.Umarova, G.Keldiyorova, D.Xatamova,
D.Qozoqboyeva, O.Hamroyeva, B.Turayeva, T.Matyoqubova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

D.Qozoqboyeva, H.Boltaboyeva

Taqrizchilar:

X.Do‘stmuhamedov – filologiya fanlari doktori, professor;

Almaz Ulvi Binnetova – filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur Materiallar O‘zMU Ilmiy texnikaviy kengashining 2024-yil
27-sentabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (09-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9910-674-30-3

© O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024

© “MASHHUR PRESS”, 2024

Булардан шундай хулоса чиқариш мумкин:

1. Ўзбек адабиётида афсона атамасининг араб тилидаги аниқ варианты асотири қўлланган ва бу тўғридан тўғри Илоҳий калом билан исботланган.

2. Афсона, яъни асотири жанри муҳим адабий, тарихий, ижтимоий муҳим жанрлардан бўлиб, унинг Қуръонда беш ўринда келтирилиши бу фикрни далиллайди.

3. Афсона ва қисса жанри адабий, тарихий жиҳатдан бир-бирига яқин ва генетик жиҳатдан иккаласи ҳам эрампиздан аввалги даврларга бориб тақалади.

Ана шу жиҳатларни ҳисобга олганда адабиётшунос олимларимиз Баҳодир Саримсоқов, Маҳмуд Ҳасаний, Поён Равшанов, Сайфиддин Рафъиддинов, Раҳимбой Жуманиёзов ва Отабек Жўрабоевнинг мустақилликдан кейинги қилган хизматлари жуда катта аҳамиятга эга эканини айтиб ўтиш лозим. Чунки бу фидойи олимлар томонидан “Ҳазрат Али ҳақида ўн тўрт қисса”, “Бобо Равшан қиссаси”, “Абу Муслим жангномаси”, “Темурнома” сингари асарлар нашр этилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қуръони карим, 2023. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Munir. – 624 б.

2. Назарова Ш., 2013. Янги қиссачилик сарҳадлари // Шарқ юлдузи. № 3. – Б.126.

3. Ҳазрат Али, 1992. Ҳазрат Али ҳақида қиссалар / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: С.Рафъиддинов. – Т.: Ёзувчи. – Б. 4.

4. Навоий, Алишер, 1991. Садди Искандарий: (Насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов ва бошқа. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирл. – 832 б.

5. Холмуродов А., 2008. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги): Филол. фанлари доктори ... дисс. – Т. – Б.18.

6. Ҳусайн Воиз Кошифий, 1994. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Б.81.

7. Жола Омузгар, 1374. Тарихи асотири Ирон. – Техрон: соземони мутолаа ва тадвини кутуби улуми инсоний донешгоҳҳо. 97 саҳ. [Mythological History of Iran. Dr. Jaleh Amoozgar.]

TURKIY QOFIYA TAKOMILIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNINI

Orzigul HAMROYEVA Jalolovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
arguvon87@mail.ru

Annotatsiya

Alisher Navoiy ijodi, uning poetika xususiyatlarini tadqiq etish turkiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash barobarida turkiy aruzshunoslik, turkiy qofiyashunoslik, turkiy adabiyotda ilmi bade'ning takomili kabi masalalar yechimini topishda muhim ahamiyatga ega. Temuriylar davri she'riyati, janr poetikasining darajoti, poetik amallarning amaliyotga tatbiqi jarayonida Navoiy lirik merosining katta o'rnini bor. Poetik janrlar qonuniyatini belgilashda, obrazlar tizimini tasniflashda, turkiy aruzshunoslik, turkiy qofiyashunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda

Alisher Navoiy lirikasi asosiy metarial vazifasini bajaradi. Shu jihatdan bugungi kunda shoir asarlari keng planda tadqiq etilmoqda.

Poetika ilmining bilimdoni Alisher Navoiy turkiy til imkoniyati nafaqat G'oyada, balki shaklda ham keng ekanligini asosli ravishda isbotlab bera olgan ijodkordir. Xususan, shoirning lirik merosi, unda aks etgan poetik unsurlarning mukammal amaliy tatbiG'i buning yorqin dalilidir. Shoir qofiyaga juda ko'p vazifa yuklaydi. Qofiyada shoirning badiiy maqsadlari aks etadi. Demakki, qofiyaga yuklangan vazifani to'G'ri tahlil orqali anglash mumkin. Turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi, yangilanishi, arabiy va forsiy qofiyadan farqli jihatlari Navoiy ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan Navoiy lirik merosining qofiya tizimini tadqiq etish bugungi kun adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Maqolada turkiy qofiya va uning o'ziga xos xususiyatlari, arab va fors qofiyasidan farqli va keng imkoniyatlari shoir ijodiyoti misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: qofiya, an'ana, adabiy tur, janr, bayt, radif, hojib, misra.

THE ROLE OF NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF TURKISH RHYME

Annotation

The study of Navoi's work and his poetic features is important in determining the specific features of Turkish literature, as well as in finding solutions to problems such as Turkish dream studies, Turkish rhyme studies, and the improvement of science and art in Turkish literature. Navoi's lyrical legacy has a great place in the poetry of the Timurid era, the level of genre poetics, and the process of applying poetic actions to practice. Alisher Navoi's lyrics serve as the main material in determining the legality of poetic genres, in classifying the system of images, in determining the scientific and theoretical foundations of Turkish dream studies, Turkish poetry studies. In this regard, the poet's works are widely studied today.

Alisher Navoi, a connoisseur of the science of poetics, is a creator who has proven that the possibilities of the Turkish language are wide not only in ideas, but also in form. In particular, the lyrical heritage of the poet, the perfect practical implementation of the poetic elements reflected in it is a clear proof of this. The poet assigns many tasks to the rhyme. The poet's artistic goals are reflected in the rhyme. So, the task assigned to the rhyme can be understood through proper analysis. The formation and renewal of the unique features of Turkish rhyme, different aspects from Arabic and Persian rhyme are clearly visible in Navoi's work. In this respect, researching the rhyme system of Navoi's lyrical heritage is one of the important tasks for today's literary studies. In the article, the Turkish rhyme and its specific features, different and wide possibilities from the Arabic and Persian rhymes are studied on the example of the poet's work.

Key words: rhyme, tradition, literary type, genre, verse, radif, hajib, misra.

РОЛЬ АЛИШЕРА НАВОИ В ЭВОЛЮЦИИ ТЮРКСКОЙ РИФМЫ

Аннотация

Изучение творчества Навои и его поэтических особенностей важно для определения специфических особенностей тюркской литературы, а также для поиска решений таких проблем, изучение тюркской рифмы, совершенствование науки и искусства в тюркской литературе. Лирическое наследие Навои занимает большое место в поэзии эпохи Тимуридов, уровне жанровой поэтики, процессе применения поэтических действий на практике.

Алишер Навои, знаток науки поэтики, создатель, доказавший, что возможности турецкого языка широки не только в идеях, но и в форме. Поэт ставит перед рифмой

множество задач. В творчестве Навои отчетливо просматриваются формирование и обновление своеобразия турецкой рифмы, отличия от арабской и персидской рифмы. В этом отношении исследование рифмованной системы лирического наследия Навои является одной из важных задач современного литературоведения. В статье на примере творчества поэта изучаются тюркская рифма и ее специфические особенности, отличные и широкие возможности от арабских и персидских рифм.

Ключевые слова: рифма, традиция, литературный тип, жанр, стих, радиф, хаджиб, мисра.

Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar ikki: fors va turkiy tilda parallel ravishda yaratildi. Tabiiyki, risolalardagi bu ikki tillilik forsiy va turkiy qofiyashunoslikning o'ziga xos xususiyatlarini asos qilib oldi, til qonuniyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos nazariyalarni taqdim qildi. Bu jihatdan ilk va mukammal manba sifatida turkiy qofiyashunoslik uchun Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloG'a" asari asos manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda temuriylar davridagi bir qancha asarlarda turkiy qofiya maxsus tadqiq etilmasa-da, ularda muallifning she'r ilmi, xususan, turkiy qofiya ilmiga oid ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Z.M.Boburning "Muxtasar" asarlarida vaznlar izohi qismida qofiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlar keltiriladi. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida taqti' va ularning talaffuz bilan bog'liq holatlari, ruknlarning tarkib topishi va misra va baytdagi o'rni masalasi aks etgan o'rinlarida qofiya harakatlari va raviiy harfi xususida to'xtalinadi. Turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda Alisher Navoiy lirikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy poetika ilmining bilimdoni sifatida bu yo'nalishda mukammal asarlar yaratish barobarida o'z davrida poetikaga oid ilmiy risolalarning yaratilishiga zamin yaratdi va ularga homiylik qildi. Xususan, Navoiyning o'zi "Majolis un-nafois" tazkirasida ilmiy salohiyatiga yuqori baho bergan Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" va "Risolai qofiya" asarlari va Husayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor" asarlarining yaratilishiga bosh-qosh bo'ldi. Shu bilan birgalikda Navoiyning bu boradagi ilmi turkiy til imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda lirikasiga ko'chdi. Shoir nafaqat g'oya va mazmunda shaklda ham turkiy qofiya fors qofiyasidan qolishmasligini ko'rsatib berdi. Biz yuqoridagi nazariy manbalar va badiiy adabiyotdagi takomiliga tayanib, turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari belgilashga harakat qildik.

Turkiy qofiyashunoslikda radifning ishtiroki va vazifasi ancha kengaygani va radifning yoyiq shakliga murojaat ko'p uchraydi. Qofiya nazariyasi dastlab arab adabiyotida shakllangan bo'lsa-da, radif qo'llash arab adabiyotiga xos xususiyat bo'lmagan. Qofiya nazariyasiga oid risola mualliflari radif "forsning ixtirosidir" deb keltiradilar. Fors adabiyotida radifning bir so'z holidagi ko'rinishi uchrasa, turkiy adabiyotda, temuriylar davrida yashab, ijod etgan shoirlar ijodida, xususan, Navoiy ijodida badiiy matn ohangdorligini ta'minlash va ijodkor maqsadini ifodasi sifatida radifli – muraddaf baytlar salmoG'i ko'p [Hamroyeva, 2022: 54].

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki, sevmak andin ortuq bo'lmas,

Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz. (Alisher Navoiy)

Arab adabiyotida qofiya qismlarining ishtirokiga ko'ra besh turi: *mutarodif*, *mutavotir*, *mutarokib*, *mutadorik*, *mutakovis* qofiya amalda bo'lgan. Keyinchalik fors adabiyotida ham qofiyaning bu besh turi qo'llanilgan. Ajam fozillari bu besh turga qo'shimcha ravishda uch turni kashf qilganlar: *mutavosiy*, *mutarajih*, *mutazoyid*. Bu uch turning o'ziga xos xususiyati shundaki, qofiyaning so'ngi o'ta cho'ziq hijo bilan tugaydi. Turkiy adabiyotdagi baytlarda qofiyadosh so'zlarning

aksariyati o'ta cho'ziq hijo bilan tugaydi [Hamroyeva, 2022: 54]. Shunga assolanib aytish mumkinki, turkiy adabiyotda turkiy til qonuniyatidan kelib chiqqan holda qofiya qismlarining ishtirokiga ko'ra mutarodif, *mutavosiy*, *mutarojih*, *mutazoyid* turlari ko'proq uchraydi.

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas *yor* anga,
Necha baG'rim bo'lsa qon, boqmas dame *dildor* anga.

Bir yuguruk tifi erur kirpiklarim ichinda yosh

Kim, yiqilib sonchilibtur har tarafdnn *xor* anga. (Mutarodif qofiya)

1. Qofiya tarkibidagi qofiya harflarini ishtiroki, ularning bir xil harfdan iborat bo'lishi ohangdorlikni ta'minlab beruvchi asosiy xususiyatlardan biridir. Shu jihatdan ridfi asliyning qo'llanishida turkiy tildagi unlilarning ishtirokiga va badiiy adabiyotdagi qo'llanishiga qarab u (vov-i ma'ruf) va o' (vov-i majhul), i ("yo"i ma'ruf) va e ("yo"i majhul) unlilari o'zaro ridf sifatida ishtirok eta olishiga oid nazariy qarashlar turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyati sifatida qabul qilindi.

Buzulgan bu mening ko'nglimni, ey hur,
Qil emdi bir tabassum birla ma'mur.

Labing uzraki xattang qo'ydi sabzi,
Namakdonlarga soldi lablaring sho'r.

Turkiy adabiyotda qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra barcha turlaridan unumli foydalanilgan. Til xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, arab va fors adabiyotida mujarrad qofiya turi ko'p uchrasa, turkiy adabiyotda shoirlarning ijodida murdof qofiya salmoq jihatidan ko'p.

Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblayi maqsud,
Boshim yuz qatla ursam erga hajringdin manga ne sud.

Yoki

Yor chun istarki, bo'lg'aymen mudom andin yiroq,
Ul jihatdin barcha vasl istar, meni mahzun firoq.

2. Vasl raviydan keyin keluvchi qofiyaning asosiy harflardan biridir. Arab va fors qofiyashunoslari vaslni belgilashda raviy va vasl o'rtasidagi ulovchi qofiya harakati – majroning ishtiroki muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Agar raviy va vasl orasida majro ishtirok etmasa, qofiyadosh so'z tarkibidagi asosdan keyingi harflar radif sifatida baholanadi. Bu esa fors va arab tilidagi so'zlarning yasalishi va grammatik shakllarning qo'shilishi bilan boG'liq. Turkiy tilda esa bu ikki tildan farqli holatda qo'shimchalar asosdan keyin qo'shiladi, qo'shimchalarning chegarasi bilinib turadi. Bu qo'shimchalar asos singari mustaqil qo'llana olmaydi. Shu jihatdan bu qo'shimchalar asos bilan bir tarkibiy qism sifatida qaraladi va raviydan keyingi harf majroning ishtirokidan qat'i nazar vasl sifatida qabul qilanadi.

Qaysi bir ko'kning yuzungdek mehri olamtobi bor?
Qaysi gulshanning jamolingdek guli serobi bor?

3. Turkiy qofiya qofiya harflarining ishtiroki va ularning soni jihatidan arab va fors qofiyasidan farq qiladi. Arab va ajam qofiyashunoslari raviydan keyin keluvchi vasl va xuruj harflarini qabul qilishadi. Biroq garchi nazariy jihatdan mazid va noyira harflari qofiya harfi sifatida taqdim etilsa-da, ularning ishtirokidan foydalanmaydilar. Xurujni qofiyadosh so'z tarkibidagi oxirgi harf sifatida baholashadi. Ayniqsa, arab adabiyotida raviydan keyingi harflarning ishtiroki juda kam uchraydi. Biroq turkiy adabiyotda ohangdorlikni ta'minlash maqsadi bilan raviydan keyingi harflar ishtirokidagi so'zlardan foydalanish asosiy xususiyatlardan biri sanaladi.

Chun quyunni dasht aro aylondurub,
Suvda igrimni doG‘i to‘lG‘ondurub.(A.Navoiy)

Yoki

Ulcha ul qildi komronliG‘idin,
Shohlar ichra pahlavonliG‘idin.(A.Navoiy)

4. Ma‘lumki, raviy harfdan iborat bo‘ladi. Garchi so‘z unli harf bilan tugasa ham, arab va ajam qofiyashunoslari so‘z oxiridagi harakatlarni raviy sifatida qabul qilmaydilar. Turkiy qofiyada esa so‘z oxiridagi unli harflar bilan berilib, bunday so‘zlar qofiyadosh so‘z sifatida qabul qilinadi. “Yana turkcha alfozdurkim, anda “alif” va “vov” va “yo” “fatha” va “zamma” va “kasra” harakati o‘rniG‘a bitilurki, bu hech mahalda har hisobiG‘a kirmas, balki harakat o‘rniG‘adurur, magar ba’zi erdakim, baytning oxirida tushgay va ani zaruratdin qofiya qilmish bo‘lG‘aylar, andoqkim:

Beling-u zulfung xayolin sharh etarmen mo‘-bamo‘,
Tashnadurmen la’linga to borburur jonimda su”

[Alisher Navoiy, 2013: 547]

Navoiy qofiyada raviyning o‘rni muhim ekanligini, raviy harfdan tashkil topishi, ba’zan qofiyadagi ba’zi kamchiliklar sabab harakatlar ham zarurat yuzasidan raviy sifatida olinib, bunday so‘zlar qofiyadosh so‘z sifatida keltirilishini ta’kidlaydi. “Muhokamat ul-luG‘atayn” asarida unli harakatlarning ifodalanishida qofiyaga oid yondashuvlarini taqdim qiladi. Turkiy tilda jumlaning kengaytirish va qofiyani osonlashtirish uchun bir nechta harfni bir-biriga sherik qilishlarini ta’kidlaydi. Masalan, “alif” bilan “ho” harfi bir qofiyada jam’ bo‘ladi. “Alif” – [ā - o], “ho” – so‘z oxirida keladigan “a” unlisi uchun ishlatiladi. Navoiy bu ikki harf ishtirokidagi so‘zlarni o‘zaro qofiyadosh qilish mumkinligini ta’kidlaydi: ara – sarā, darā; ara – sara, dara; yada - sadā, bāda. “vov” va “zamma” orasida ham shunday bo‘liqlik bor. Yerūr – hūr, dūr. “Yo” va “kasra” bilan ifodalangan so‘zlarni ham o‘zaro qofiyada jam’ qilish mumkin: sağīr – bağīr; tāxī – tağīr [Alisher Navoiy, 2017: 66]. Navoiy bu holatni turkiy adabiyotdagi engillik sifatida baholaydi. Fors so‘zlarida bu kabi osonlashtirish, engillik mavjud emasligini ta’kidlaydi.

5. Turkiy adabiyotda asliy, ma’muliy va shoygon qofiyaning bir she’riy janr tarkibida qo‘llanishi ko‘p uchraydi. Asoslari bir-biriga ohangdosh bo‘lmagan so‘zlarda qo‘shimchalar asosida qofiyadoshlik hosil qilinadi. Hazrat Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Mavlono Atoiy ta’rifida shoirning mashhur

Ul-sanamkim suv yaqosinda paretek o‘lturur,
G‘oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo‘lur [Alisher Navoiy, 2013: 314]

baytida keltirilgan qofiyaning “aybG‘inasi bor”ligini aytadi

Bayt tarkibidagi qofiyadosh so‘zlarga e’tibor berilsa, *o‘ltur* – *bo‘l* so‘zlari qofiyadosh bo‘la olmaydi. Demak, bu ikki so‘zni qofiyadosh so‘z sifatida *-ur* qo‘shimchasi shakllantirgan. Raviyning qofiya harfi ekanligini inobatga olsak, raviy sifatida *r* harfi olinadi. Navoiy aytmoqchi bo‘lgan “qofiyasidagi aybG‘inasi” raviy asos tarkibida emas, qo‘shimcha tarkibida ishtirok etganidir.

Tirguzur har dam raqiblarniyu meni o‘lturur,
O‘t yoqib el joniG‘a mening ichimni kuydurur.

Ko‘nglum ahvolin sabodin so‘rdum ersa dedikim:
Telbalardek bir pariy ko‘yida sargardon yurur,

Ul quyosh yuziga boqqan soyi ortar ko‘z yoshim,
Mehr tobidin agarchi har nekim, o‘ldur, *qurur*.

Qon yoshim rangi yoshurdi hotami la‘l oG‘zini,
O‘ynamoqda yoshlar andoqkim uzukni *yashurur*.

Senki yo‘qsen mohruxlar jilva aylarlar valek,
Kecha ishlar qurt nuri mehr chiqqach *bilgurur*.

Ul quyosh hijronida har tun iki mungluG‘ ko‘zum,
TongG‘a tegru subhidam yo‘liG‘a boqib *telmurur*.

Tuzluk aylab sham‘dek, vah, bilmadimkim, bu nihol
Mehnat o‘ti gul ochar, yosh qatrasi bar *kelturur* (Alisher Navoiy)

Ushbu G‘azaldagi o‘lturur - kuydurur – yurur – qurur – yashurur – bilgurur – telmurur –
kelturur qofiyadosh so‘zlardagi raviy so‘zlarning asoslarida emas, qo‘shimchalar tarkibida kelgan.

Chun meni majnun boshin atfol toshi *sindurur*,
Oh o‘ti jo‘lida sochimdin anga kiz *kundurur*.

Ahli dillar chehra ochdi, yor ochmang diydakim,
Har kishi ul yuzga ko‘z oldurdi ko‘nglin *oldurur*.

Ko‘rgach ul yuzni boshimG‘a urdi yuz tiG‘i balo,
Ko‘rki, chiqqur ko‘z boshimG‘a ne balolar *kelturur*.

Ko‘zda asrabmen baG‘ir qonin tilar bo‘lsang xino,
Surtsam ko‘zni ayoG‘ingG‘a hamul dam *bilgurur*.

Bul-ajab yiG‘lar jununum ichra ko‘rkim, xalqni
Ishq bir dam yiG‘latur holimG‘a, bir dam *kuldurur*.

Navbahori husndin topma fireb, ey sho‘xkim,
Charx davri navbahor o‘tmay xazonin *etkurur*.

Ey Navoiy, hajr anduhida mast o‘l zinhor
Kim, ko‘nguldin G‘amni bir dam zoyil etkan *maydurur*.

6. Ushbu G‘azaldagi *sindurur* – *kundurur* - *oldurur* – *keldurur* – *bilgurur* – *kuldurur* –
etkurur – *maydurur* qofiyadosh so‘zlar ham tarkiban turlicha. Shuning uchun ham raviy asos
tarkibidan emas, qo‘shimcha tarkibidan tanlab olinadi Turkiy adabiyotda Ahmad Taroziy
aytganidek, so‘z (kalima) va qo‘shma so‘z (ikki kalima) holidagi so‘zlarning qofiyadoshligi ko‘p
uchraydi[Taroziy, 2016]. Arab va fors qofiyashunoslari bu holatni qofiyadagi kamchilik sifatida
qabul qilishsa, turkiy adabiyotda bunga ruxsat berilgan.

Xil‘atin aylabtur ul sho‘xi *siyminbar* qaro,
Tun savodi birla kelgandek mahi *anvar* qaro.

Ul pari hindusimen men telbakim, uryon tanim
Tifllar toshidin iynak bo'ldi *sartosar* qaro.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy turkiy qofiya va uning o'ziga xos xususiyatlarining amaliy jihatini lirik merosida mukammal holatda namoyon qilgan. Keyinchalik shu asosda temuriylar davridagi poetikaga oid risolalarda qofiya ilmi tadqiqi takomillashdi, yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi, til qonuniyatiga moslashtirildi [Hamroyeva, 2023: 412]. Xususan, turkiy qofiya turkiy tilning grammatik tuzilishi asosida o'zgarib, badiiy adabiyotda takomillashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, 2013. G'aroyib us-sig'ar. TAT. 10 jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi.
2. Alisher Navoiy, 2013. Badoye' ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi.
3. Alisher Navoiy, 2013. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi.
4. Alisher Navoiy, 2013. Favoyid ul-kibar. TAT. 10 jildlik. 4-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi?
5. Алишер Навоий, 2013. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами. 9-жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Б. 314.
6. Алишер Навоий, 2013. Мезон ул-авзон // Тўла асарлар тўплами. 10-жилд. –Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
7. Алишер Навоий, 2017. Муҳокамату-л-луғатайн. Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Т.: Академнашр. – Б. 89.
8. Atoulloh Husayniy, 1981. Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A.Rustamov tarjimasi) – T. – B. 398
9. Atoulloh Husayniy, 1393. Risolai qofiya. Ba kushish Fozil Abboszoda, Doktor Rajab Tavhidyon. – Tehron. H.– 71 s.
10. Jalolovna H.O., 2022. Improvement of the Science of rhyme in treatises of the timurid period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
11. Hamroyeva O., 2023. Turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari(Navoiy ijodi misolida). «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari. – B. 410-417.
12. Хамроева О., 2022. Темурийлар давридаги поэтикага доир risolаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. Монография. – Т.: BOOKPRINT. – Б. 255.
13. Hamroyeva O., 2022. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – T: BOOKPRINT. – B. 155.
14. Hamroyeva, O. J., 2022. Classification of fine arts in "Hadoyiq us-Sikhr". Scientific reports of Bukhara State University, (1), 47-56.
15. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, 2016. Fununu-l-balog'a (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev). – T.: MUMTOZ SO'Z.– 244 s.

MUNDARIJA

I.U.MADJIDOV. ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK SAMARALARI (So'zbi shi o'rnida).....	3
--	----------

1-sho'ba. ADABIY TA'LIMDAGI YETAKCHI KONSEPSIYALAR

Tanju SEYHAN. DOĞU TÜRKÇESİYLE ÜÇ ARUZ RİSALESİNDE ARUZ TERİMLERİ VE TANIM CÜMLELERİNİN YAPISI.....	7
Məmməd ƏLİYEV. ƏDƏBİYYAT NƏZƏRİYYƏÇİSİ SALİDƏ ŞƏRİFOVANIN ELMİ TƏDQİQATLARINA BAXIŞ.....	25
Mehmet Cemal ÇİFTÇİGÜZELİ. DÜNYA BARIŞINA VE İNSANA YATIRIMI ALİMLER VE SANATÇILAR GETİRECEK.....	37
Сувон МЕЛИ. АЛИШЕР НАВОЙИЙ ВА ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ СЕВГИ ТАЛҚИНЛАРИ.....	44
Исомиддин ЁРМАТОВ. ПОЭТИК ОЛАМ КАТЕГОРИЯСИГА ДОИР НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ТАВСИФИ.....	49
Шоира АХМЕДОМА. ПРОФЕССОР АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ АДАБИЁТ- ШУНОСЛИККА ДОИР ҚАРАШЛАРИ ТАЛҚИНЛАРИ.....	56
Жасурбек МАХМУДОВ. ЎЗБЕК ҚИССА ВА АФСОНАЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ-ДИНИЙ ГЕНЕЗИСИГА ДОИР.....	61
Orzigul HAMROYEVA. TURKIY QOFIYA TAKOMILIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNI.....	66
Хулкар ҲАМРОЕВА, Тўмарис Аъзам БУТУНБАЕВА. САНЪАТ ДИАЛЕКТИКАСИ: АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИНИНГ СИРИ ВА СЕҲРИ.....	73
Пердебай НУРЖАНОВ. ҚОРАҚАЛПОҚ ФОЛЬКЛОРИДА ОЛТИН ЎРДА ВА НЎҒАЙ ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИНИНГ ТАСВИРЛАНИШИ.....	78
Zilola AMONOVA, Maftuna TO'RAYEVA. SADRIDDIN AYNIYNING ILMIY TALQINLARI (ABU ALI IBN SINO FAOLIYATI MISOLIDA).....	83
Дилфуза ХАТАМОВА. ПОЭТИКА ТЕРМИНИНИНГ МАЪНО ҚАМРОВИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....	90
Dilshod G'AYIPOV, Guliston ABDULLAYEVA. XORAZM ADABIY MUHITIDA YANGICHA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING BADIY TALQINI.....	95
Arzu HAGIYEVA. FİRİDUN BƏY KÖÇƏRLİNİN “AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATI TARİXİ” KİTABINDA ƏLİŞİR NƏVAİ.....	100
Nasima QODIROVA. ROLAN BART ADABIY-TANQID NAZARIYOTCHISI SIFATIDA.....	107
Shuhrat HAYITOV. «ARUZ RISOLASI» TADQIQI.....	112
Нигорахон САЛОХИДДИНОВА. ШЕЪР МАТНИДА АЁЛ ОЛАМИНИ ИФОДАЛОВЧИ СЎЗНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ.....	121
Aytən QURBANOVA. TÜRKSOYLU DÖVLƏTLƏRİN ƏDƏBİYYATINDA ÜMUMTÜRK KONTEKSTİ.....	126
Жамила БУРАНОВА. ПОЭТИКА МИФА В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА.....	132
Gülmar YUNUSOVA. XX ƏSR YAPON ƏDƏBİYYATINDA YENİ TƏMAYÜLLƏRİN FORMALAŞMASINI ŞƏRTLƏNDİRƏN AMİLLƏR.....	141

Zebo SABIROVA. ZAMONAVIY ADABIY JARAYONNI DAVRLASHTIRISH XUSUSIDA.....	145
Zilola JAMOLOVA. ADABIY OBZORLARDA MUMTOZ ADABIYOT TAHLILI.....	150
Абдымиталип МУРЗАКМЕТОВ. КЫРГЫЗ ФОЛЬКЛОРУНДАГЫ «КОРКУТМА» ЖАНРЫ.....	155
Məsumə NURIYEVA. QUL ƏTAYİNİN “LEYLİ VƏ MƏCNUN” ƏSƏRİNİN POETİK QAYNAĞI: “KİTABİ-DƏDƏ QORQUD”.....	162
Səbirə MÜZAFFARLI. AVANQARDİZMİN DÜNYADA TENDENSİYA KİMİ İNKİŞAFI.....	168
Bobur ISMOILOV. YUSUF SAKKOKIYNING «MIFTOHU-L-ULUM» ASARIDA EGAGA TEGISHLI HOLATLAR TA'RIFI VA UNING ANIQLIK O'RINLARI.....	174
Shavkatjon VOSITOV. FITRATNING ILMIY MEROSI TALQINILARI.....	180
Atagulla SATBAYEV. HÁZIRGI QARAQALPAQ LIRIKASINDA AVTORLIQ PUNKTUACIYANÍN STILLIK QOLLANILIWÍ.....	185
Озода НОРҚУЛОВА. ДРАМАТУРГИЯ ТАДҚИҚОТЧИСИ.....	192
Xurshidabonu SATTORZODA. PIRIMQUL QODIROVNING CHO‘LPON HAQIDAGI NAZARIY QARASHLARI TAHLILI.....	196
Nodirjon G‘AFUROV. O‘ZBEK JADID ADABIYOTIDA AHMAD YASSAVIY MAKTABI VAKILLARI IJODINING O‘RGANILISHI.....	199
Xurshida YULDASHEVA. ABU ALI IBN SINO RISOLALARIDA MUMTOZ POETIKA MASALALARI.....	205

2-шўъба. MUMTOZ ADABIYOTNING NAZARIY ASOSLARI

Abdurrahman GÜZEL. YÛNUS EMRE'NİN ESERLERİNDE İNSAN SEVGİSİ.....	212
Süleyman DOĞAN. MEVLANA'NIN MESNEVİ'SİNDEN METAFORİK TELKİNLER.....	223
Təhminə BƏDALOVA. AĞABƏYİM AĞA CAVANŞİR ƏDƏBİ-BƏDİİ MƏTNLƏRDƏ: MÖVCUD TƏHLİLLƏR VƏ YORUMLARA BAXIŞ.....	242
Нодирхон ҲАСАНОВ. ХҲЖАНАЗАР ҲУБАЙДО ВА ЎЗБЕК ТАСАВВУФ ШЕЪРИЯТИ.....	246
Könül HACIYEVA. AZƏRBAYCAN KLASSİK ƏDƏBİYYATI NÜMAYƏNDƏSİ XAQANİNİN QƏZƏLLƏRİNDƏ TƏŞBEH VƏ MÜBALİĞƏ SİSTEMİ.....	251
Исроил СУЛАЙМОНОВ. «БОБУРНОМА»ДА ШАХС РУҲИЯТИ ТАСВИРИ ВА МУАЛЛИФ МАҲОРАТИ.....	259
Қурбанбай ЖАРИМБЕТОВ. XALQ DARDINI KUYLAGAN SHOIR.....	265
Kamalbay PALIMBETOV. ÁJINIYAZ SHIGARMALARIN ELEDE TEREÑIREK IZERTLEW MÁSELELERI.....	271
Ziyada BEKBERGENOVA. BERDAQ SHIGARMALARIN ÚYRENIWDIŇ JAŇA BAĞDARLARI.....	279
Жалолиддин ЖЎРАЕВ, Саидакбар МУҲАММАДАМИНОВ. МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎЗРФА ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ФОНДИДА САҚЛАНАЁТГАН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ТАСНИФИ ВА КОДИКОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.....	287
Фарида КАРИМОВА. ФОРС АДАБИЁТИДА ДЕБОЧАНАВИСЛИКНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА ТАДРИЖИЙ ТАКОМИЛИ ХУСУСИДА.....	295
Bobonazar MURTAOYEV. “LUBOBU-L-ALBOB”NING SIRLI OLAMI.....	302